



## FIGHTING CORRUPTION IN THE SYSTEM OF PROSECUTORIAL OFFICES OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN (NORMATIVE-LEGAL ANALYSIS)

*Shukhrat Tashkhujaev*

*Master's student*

*Law Enforcement Academy of the Republic of Uzbekistan*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [shukhrattoshxojaev66@gmail.com](mailto:shukhrattoshxojaev66@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** prosecutorial system, corruption, regulatory and legal analysis, internal anti-corruption control system, compliance and supervision, conflict of interest, measures to prevent corruption, fight against corruption.

**Received:** 08.03.25

**Accepted:** 10.03.25

**Published:** 12.03.25

**Abstract:** This article provides a normative and legal analysis of the fight against corruption in the system of prosecutorial bodies of the Republic of Uzbekistan. As a result of this normative and legal analysis, recommendations for improving legislative documents and an author's definition of the concept of combating corruption in the system of prosecutorial bodies of the Republic of Uzbekistan were developed, and the specific aspects of this concept were highlighted.

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PROKURATURA ORGANLARI TIZIMIDA KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH (NORMATIV-HUQUQIY TAHLIL)

*Shuxrat Tashxujaev*

*magistratura tinglovchisi*

*O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [shuxrattoshxojaev66@gmail.com](mailto:shuxrattoshxojaev66@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** prokuratura organlari tizimi, korrupsiya, normativ-huquqiy tahlil, korrupsiyaga qarshi ichki, nazorat tizimi, komplaens-nazorat, manfaatlar to'qnashuvi, korrupsiyani oldini olishga doir chora-tadbir, korrupsiyaga qarshi kurash.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning normativ-huquqiy tahlili amalga oshirilib, ushbu normativ-tahlil natijasida qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish yuzasidan tavsiya hamda O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasiga mualliflik ta'rifi

ishlab chiqilgan, ushbu tushunchaning o'ziga xos jihatlari yoritib o'tilgan.

## БОРЬБА С КОРРУПЦИЕЙ В СИСТЕМЕ ОРГАНОВ ПРОКУРАТУРЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН (НОРМАТИВНО-ПРАВОВОЙ АНАЛИЗ)

*Шухрат Таихуджаев*

*студент магистратуры*

*Академия правоохранительных органов Республики Узбекистан*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [shuxrattoshxojaev66@gmail.com](mailto:shuxrattoshxojaev66@gmail.com)*

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** система прокуратуры, коррупция, нормативно-правовой анализ, система внутреннего антикоррупционного контроля, комплаенс и надзор, конфликт интересов, меры по предупреждению коррупции, борьба с коррупцией.

**Аннотация:** В данной статье дается нормативно-правовой анализ борьбы с коррупцией в системе органов прокуратуры Республики Узбекистан. В результате данного нормативно-правового анализа разработаны рекомендации по совершенствованию законодательных документов и авторское определение понятия борьбы с коррупцией в системе органов прокуратуры Республики Узбекистан, а также выделены отдельные аспекты данного понятия.

**Kirish.** Bizga ma'lumki, davlat organlari faoliyatining lozim darajada shaffof emasligi, korrupsiya sabablari va omillari puxta hamda tizimli ravishda tahlil etilmasligi, korrupsiya bilan bog'liq kriminogen holatlar yuzasidan sohada profilaktika ishlarini olib borishda huquqni muhofaza qiluvchi organlar, boshqa davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan o'zaro hamkorligi lozim darajada emasligi kabi salbiy holatlar o'sha davlat organ tizimida korrupsiyani yanada rivojlanishiga ko'maklashadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasida: "Albatta, amnistiya jinoyat sodir etgan odamlarni kechirish bo'yicha muhim mexanizmlardan biri. Biroq, tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oldindan chuqur o'rganmasdan turib javobgarlikdan ozod qilishni belgilash qilmishiga pushaymon bo'lmagan, yetkazilgan zararni to'liq qoplamagan shaxslar ham amnistiya doirasiga kirib qolishiga sabab bo'lgan. Bu masalada, ming afsuski, korrupsiya holatlari ham bo'lgan deb aytsak, to'g'ri bo'ladi. Prokuratura, ichki ishlar va sud idoralarida ham bunday noma'qul ishlarga yo'l qo'yilgan", – deb ta'kidlab o'tgan edilar. [1] Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-noyabrdagi PF-200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2023-2024-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi chora-tadbirlarining 21-bandida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlari tomonidan korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilishining oldini olish lozimligi belgilangan hamda ushbu chora-tadbirni

amalga oshirish mexanizmi sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organ xodimlarining korrupsiyaga oid jinoyatlar sodir etilishiga imkoniyat yaratib berayotgan funktsiya va vazifalarini tahlil qilib, ularni sudlarga o'tkazish yoki raqamlashtirish orqali korrupsiya xavf-xatarlarni minimallashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish shartligi ko'rsatilgan. [2] Bu esa o'z-o'zidan O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasining normativ-huquqiy tahlilini olib borish dolzarb masala ekanligini ko'rsatib beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi.** O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasining normativ-huquqiy tahliliga bog'liq masalalar B.Axrorov, S.A.Boydedayev, A.Burxanov, T.U.Safarov, Z.Ibragimov, B.Ismoilov, A.Atajanov, S.Mamanov, N.Salayev, B.Xidoyatov, G.Tulaganova, S.Niyozova, B.Aliyev, A.Muxtarov, T.Norov, F.Maxmudovlar tomonidan, MDH davlatlari miqyosida A.V.Vorobyov, Y.N.Rumyanseva, A.N.Skorobogatova, Chan Xiu Txan, S.S.Tereshuk, T.A.Nesterova, V.V.Strelnikov, V.V.Kazakovlar tomonidan, xorijiy mamlakatlarda esa Julie Kathleen Faller, Ahmet Turer (AQSH), Yee-ling Yiu (Vyetnam), M. Qizilbash, Oliver Cover (Buyuk Britaniya), Kam-bill Wong (Yaponiya), Ying Shang (Singapur), Gang Xu (Xitoy), Yunbo Sun (Kanada), Yinan Li (Shvetsiya) tomonidan yetarlicha hamda atroflicha o'rganilgan. Shu bilan birgalikda, ushbu maqolani tayyorlash hamda ilmiy jihatdan tahlil qilishda kuzatish va tahlil, normativ-hujjatlar tahlili, holat o'rganish (case study), teoretik va nazariy tahlil, komparativ (solishtirma) tahlil, induksiya va deduksiya, interdisiplinar yondashuv kabi huquqshunoslik metodlaridan foydalanildi.

**Muhokama va natijalar.** O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasining normativ-huquqiy tahlilini amalga oshirishdan oldin korrupsiya tushunchasini yoritib o'tishimiz lozim. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun 3-moddasiga ko'ra, korrupsiya — shaxsning o'z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yoxud o'zga shaxslarning manfaatlarini ko'zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish hisoblanadi [3]. Zero, mamlakatda qonun va adolat ustuvorligini, tinchlik va osoyishtalikni mustahkamlash hamda korrupsiyaga qarshi kurash asosiy me'zon bo'lgan prokuratura organlari tizimida korrupsiya jinoyatlarini sodir etish orqali prokuror maqomiga dog' tushiradigan, nopok, zimmasidagi vazifa va vakolatlarni suiiste'mol qiladigan prokuratura xodimlariga nisbatan keskin choralar ko'rilishi hozirgi davr talabidir.

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish normativ-huquqiy tahlili – prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini

tartibga soladigan qonunchilik hujjatlari, ya'ni, qonun hujjatlari va qonun osti hujjatlaridan iborat normativ-hujjatlar tahlili hisoblanadi.

Prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasining quyidagi o'ziga xos jihatlari mavjud:

**Birinchidan**, prokuratura organlari tizimi qonunchilik hujjatlari doirasida aniq belgilab qo'yilganligi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-son Qonun 10-moddasi [4], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-noyabrdagi "Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-257-son Farmoni [5] hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 29-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining "Huquq" gazetasi tahririyati to'g'risida"gi 217-son Qaroriga [6] binoan, prokuratura organlari tizimi: 1) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi; 2) Qoraqalpog'iston Respublikasi prokuraturasi; 3) viloyatlar va Toshkent shahar prokuraturalari; 4) viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi; 5) viloyat prokuraturalariga tenglashtirilgan O'zbekiston Respublikasi Transport prokuraturasi; 6) tumanlar va shaharlar prokuraturalari; 7) tuman prokuraturalariga tenglashtirilgan, hududiy harbiy, transport va ixtisoslashtirilgan prokuraturalar; 8) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning joylardagi bo'linmalari; 9) O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida Majburiy ijro byurosi va uning joylardagi bo'linmalari; 10) "Huquq" ("Huquq") gazetasi tahririyati" davlat korxonasi; 11) O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasidan iborat.

**Ikkinchidan**, Ichki xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tuzilmalar hisoblanishi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi "Prokuratura to'g'risida"gi 257-II-son Qonun 46-moddasi ikkinchi qismiga binoan, prokuratura organlarining ichki xavfsizligini ta'minlash bo'linmasi prokuratura organlari xodimlari tomonidan sodir etilgan xizmat mavqeyini suiiste'mol qilish, korrupsiya va egallab turgan lavozimiga noloyiq boshqa nojo'ya xatti-harakatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'yicha xizmat tekshiruvlari o'tkazadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi PF-5019-son Farmoni [7] bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining tashkiliy-shtat tuzilmasiga binoan, 9 nafar shtat birligidan iborat Shaxsiy xavfsizlik boshqarmasi, ushbu Farmon bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti tashkiliy-shtat tuzilmasiga asosan, 3 nafar shtat birligidan iborat Shaxsiy xavfsizlik bo'limi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi PQ-3016-son qarori bilan

tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi markaziy apparati tashkiliy-shtat tuzilmasiga asosan, 5 nafar shtat birligidan iborat Ichki xavfsizlikni ta‘minlash boshqarmasi tashkil etilgan va faoliyat yuritmoqda. [8]

**Uchinchidan,** O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) joriy etilganligi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi PQ–3016-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to‘g‘risida” nizom [9] 10-bandida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) joriy etilishi va ishlashi ta‘minlanishi belgilab qo‘yilgan. E‘tiborli jihati, korrupsiyaga qarshi nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) faqatgina prokuratura organlari tizimida O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarida tashkil qilingan.

**To‘rtinchidan,** prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining asosiy vazifalari sifatida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rish hisoblanishi. Ushbu vazifalar O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ–5177-son Qarori 3-bandi ikkinchi xatboshisiga asosan belgilab qo‘yilgan. [10]

**Beshinchidan,** manfaatlar to‘qnashuviga oid munosabatlar korrupsiyaga qarshi kurashish munosabatlar doirasiga kirishi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonun 3-moddasiga binoan, manfaatlar to‘qnashuvi — shaxsning shaxsiy (bevosita yoki bilvosita) manfaatdorligi uning o‘z lavozim yoki xizmat majburiyatlarini lozim darajada bajarishiga ta‘sir ko‘rsatayotgan yoxud ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hamda shaxsiy manfaatdorlik bilan fuqarolarning, tashkilotlarning, jamiyatning yoki davlatning huquqlari, qonuniy manfaatlari o‘rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelayotgan (mavjud manfaatlar to‘qnashuvi) yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan (ehtimoliy manfaatlar to‘qnashuvi) vaziyatdir. [11] Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son 19-moddasiga binoan, davlat organlari xodimlari manfaatlarining to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘tkazilishini ta‘minlash davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar sirasiga kiradi.

**Oltinchidan,** prokuratura organlari tizimida manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish bo‘yicha maxsus bo‘linma Ichki xavfsizlikni ta‘minlash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni

ta'minlash bo'yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi ("komplaens-nazorat") tomonidan amalga oshirilishi. Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 5-iyundagi "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi O'RQ-931-son Qonun 3-moddasiga binoan, manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma – davlat organlarining yoki boshqa tashkilotlarning korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'linmalari (va) yoki kadrlar bo'linmalari hisoblanadi. [3]

**Yettinchidan**, prokuratura organlari tizimida korrupsiyani oldini olishga doir chora-tadbirlar umumiy ma'noda belgilanganligi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonun 19-moddasiga binoan, davlat boshqaruvi sohasida korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlar belgilangan. [3]

Demak, yuqoridagi normativ-huquqiy tahlilni amalga oshirish orqali quyidagicha tahrirda mualliflik ta'rifini ilgari surish maqsadga muvofiq: "Prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurash – Ichki xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlar, korrupsiyaga qarshi nazorat tizimi tomonidan prokuratura organlari tizimida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish faoliyatidir."

**Xulosa.** Prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasining quyidagi o'ziga xos jihatlari mavjud:

- prokuratura organlari tizimi qonunchilik hujjatlari doirasida aniq belgilab qo'yilganligi;
- Ichki xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari O'zbekiston Respublikasi prokuraturasi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tuzilmalar hisoblanishi;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi organlarida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimi ("komplaens-nazorat") joriy etilganligi;
- prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalarining asosiy vazifalari sifatida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish hisoblanishi;
- manfaatlar to'qnashuviga oid munosabatlar korrupsiyaga qarshi kurashish munosabatlar doirasiga kirishi;
- prokuratura organlari tizimida manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha maxsus bo'linma Ichki xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha



prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlari, korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi (“komplaens-nazorat”) tomonidan amalga oshirilishi;

- prokuratura organlari tizimida korrupsiyani oldini olishga doir chora-tadbirlar umumiy ma’noda belgilanganligi.

Shuningdek, prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish normativ-huquqiy tahlilini amalga oshirish orqali quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

- O‘zbekiston Respublikasining 2001-yil 29-avgustda qabul qilingan yangi tahrirdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-son Qonun 10-moddasida belgilab qo‘yilgan prokuratura organlari tizimiga “Huquq” (“Huquq”) gazetasi tahririyati” davlat korxonasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasini kiritish maqsadga muvofiq;

- quyidagi tahrirda mualliflik ta’rifini ilgari surish maqsadga muvofiq: “Prokuratura organlari tizimida korrupsiyaga qarshi kurash – Ichki xavfsizlikni ta’minlash boshqarmasi, ichki xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha prokuror katta yordamchilari, shaxsiy xavfsizlik tarmoqlar, korrupsiyaga qarshi nazorat tizimi tomonidan prokuratura organlari tizimida korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish choralarini ko‘rish faoliyatidir.”

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasi, 2017-yil 7-dekabr, [https://constitution.uz/uz/pages/prezident\\_maruzasi\\_25yil](https://constitution.uz/uz/pages/prezident_maruzasi_25yil).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF–200-son Farmoni bilan tasdiqlangan Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha 2023-2024-yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi, 2023-yil 27-noyabr, <https://www.lex.uz/uz/docs/-6676585>.

3. O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi O‘RQ-419-son Qonun, 2017-yil 3-yanvar, <https://lex.uz/docs/-3088008#-3088317>.

4. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-son Qonun, 2001-yil 29-avgust, <https://lex.uz/docs/-106197>.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jinoyatlarni tergov qilish sohasida malakali kadrlarni tayyorlashning sifat jihatidan yangi tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-257-son Farmoni, 2022-yil 28-noyabr, <https://lex.uz/docs/-6299077>.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining “Huquq” gazetasi tahririyati to‘g‘risida”gi 217-son Qarori, 2009-yil 29-iyul, <https://lex.uz/mact/-1508827>.

7. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5019-son Farmoni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasining tashkiliy-shtat tuzilmasi, 2017-yil 18-aprel, <https://lex.uz/acts/-3177796>.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3016-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi markaziy apparati tashkiliy-shtat tuzilmasi, 2017-yil 30-may, <https://lex.uz/docs/-3220004>.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3016-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to‘g‘risida” nizom, 2017-yil 30-may, <https://lex.uz/docs/-3220004>.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son Qarori, 2021-yil 6-iyul, <https://lex.uz/ru/docs/-5495533>;

11. O‘zbekiston Respublikasining “Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida”gi O‘RQ-931-son Qonun, 2024-yil 5-iyun, <https://lex.uz/uz/docs/-6952742>.